

**O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT BOZORINING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI**

Yuldashev Shadiyor Shuxrat o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti Mutaxassislik
gumanitar va aniq fanlar kafedrası Katta o'qituvchisi*

Yakubbayeva Muqaddas Azamat qiz

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti To'rtko'l fakulteti Axborot tizimlari
va texnologiyalari yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada elektron tijoratning jahon va O'zbekiston miqyosida shakllanayotgan zamonaviy ko'rinishlari, uning bugungi holati, rivojlanish tendensiyalari hamda istiqbollari tahlil qilinadi. Unda sun'iy intellekt (AI) texnologiyalari, mobil savdo (m-commerce), AR/VR yechimlari, ekologik barqarorlik tamoyillari va xalqaro elektron savdoning globallashuv jarayonidagi o'rni chuqur yoritilgan. Shuningdek, maqolada elektron tijoratning kelgusi bosqichlarda rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar ilmiy manbalar hamda amaliy tajribalar asosida tahlil qilinib, sohaning istiqboldagi yo'nalishlari asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *elektron tijorat, raqamli iqtisodiyot, e-commerce, m-commerce, sun'iy intellekt, AR/VR texnologiyalari, social commerce, xalqaro savdo, onlayn savdo, marketplace, O'zbekiston.*

Kirish

XXI asrda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi savdo-sotiq sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa, elektron tijorat platformalari — marketplace — global savdo tizimining ajralmas qismiga aylanib, mahsulot va xizmatlarni tezkor, qulay va xavfsiz shaklda iste'molchiga yetkazish imkonini bermogda. Marketplace — bu uchinchi shaxslar mahsulot va xizmatlarini taqdim etuvchi, xaridor va sotuvchi o'rtasida raqamli vositachi sifatida ishlovchi zamonaviy elektron savdo maydonidir. Bunday platformalarning ustun jihatlaridan

biri, bir mahsulotni bir nechta sotuvchilardan solishtirib, eng maqbul narx yoki sifatni tanlash imkoniyatining mavjudligidir.

O'zbekiston hukumati elektron tijoratni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, 2023-yil 30-noyabrda qabul qilingan PQ-381-son Qaror orqali raqamli mahsulotlar iste'molchilari huquqlarini himoya qilish, elektron savdoda xavfsizlikni ta'minlash va onlayn platformalarni modernizatsiya qilish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilab berdi. Mazkur qaror elektron tijoratning yurtimizdagi institutsional asoslarini mustahkamlash va sohada samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda elektron tijoratning dolzarb yo'nalishlaridan biri bu — **to'ldirilgan reallik (AR)** texnologiyalaridan foydalanishdir. AR vositalari xaridorga mahsulotning 3D modelini real makonda ko'rib chiqish, uni xonaga joylashtirib ko'rish yoki virtual tarzda sinab ko'rish imkoniyatlarini beradi. Bu xaridorning tanlov jarayonini osonlashtiradi va xaridga bo'lgan ishonchni oshiradi.

Umuman olganda, elektron tijorat (e-commerce) bugun faqat mahsulot va xizmatlarni internet orqali sotib olish jarayoni emas, balki iqtisodiy tizimni optimallashtirish, biznes jarayonlarni avtomatlashtirish, xalqaro savdoni jadallashtirish va raqamli iqtisodiyotning innovatsion rivojiga xizmat qiladigan muhim mexanizmdir. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, elektron tijorat global iqtisodiyotning ajralmas va eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida **tizimli yondashuv, iqtisodiy tahlil, taqqoslash** va **mantiqiy tahlil** usullaridan foydalanildi. Avvalo, elektron tijoratning rivojlanish tendensiyalariga oid ilmiy manbalar, statistik ma'lumotlar hamda amaliy tajribalar yig'ildi va ular chuqur o'rganildi. Toplangan ma'lumotlar asosida sohaning mavjud holati, o'sish dinamikasi va muammolar bosqichma-bosqich tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida elektron tijorat platformalarida uchraydigan kamchiliklar, xususan, raqamli mahsulotlarni yoki ular haqidagi ma'lumotlarni joylashtirish va olib tashlash bo'yicha arizalarni qabul qilish jarayonining to'liq

avtomatlashtirilmaganligi, elektron operatsiyalar bo'yicha yakuniy statistik hisobotlarni shakllantirish tizimining yetarlicha takomillashmaganligi kabi masalalar chuqur o'rganildi.

Shuningdek, elektron tijorat sohasidagi mavjud yutuqlar va erishilgan natijalar boshqa davlatlar tajribasi bilan taqqoslab baholandi. Mazkur taqqoslashlar orqali O'zbekiston sharoitida elektron tijoratning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi omillar va uni jadallashtirish imkoniyatlari aniqlab olindi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xaridorlarning onlayn xaridni tanlashidagi asosiy omillardan biri — uyda yoki ish joyida o'tirgan holda qulay va tezkor xarid amalga oshirish imkoniyatidir. Elektron savdo jarayoni vaqt tejalishi, tanlovning kengligi va narxlarni solishtirish imkoniyati bilan xaridorlarni jalb etmoqda.

Onlayn xaridorlarning xarid qilishga undovchi eng muhim omillar quyidagilardan iborat:

1. **Bepul yetkazib berish** — xaridorlarni jalb qiluvchi asosiy rag'bat.
2. **Chegirmalar va kuponlar** — foydalanuvchilarni doimiy mijozga aylantiradi.
3. **Xaridor sharhlari** — mahsulot tanlovida muhim rol o'ynaydi.
4. **Tez va oson xarid** — oddiy interfeys va avtomatlashtirilgan to'lovlar xaridni qulaylashtiradi.
5. **Ishonch darajasi** — xavfsizlik sertifikatleri va kafolat tizimi ishonchni oshiradi.
6. **Ekologik mahsulotlar** — sertifikatlangan va barqaror mahsulotlarga talab ortmoqda.
7. **To'lovni bo'lib-bo'lib to'lash (instalment) imkoniyati** — yirik xaridlar uchun qulay to'lov shakli bo'lib, iste'molchilar xarajatlarini rejalashtirishda yordam beradi.

Yuqoridagi omillar shuni anglatadiki, elektron tijorat platformalari xaridor ehtiyojlarini chuqur o'rganib, ularning qulayligi va ishonchini ta'minlash orqali bozorda raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Shuningdek, bu omillar marketing strategiyalarini shakllantirishda muhim ko'rsatkich sifatida xizmat qiladi.

Onlayn savdoda bepul yetkazib berish, chegirmalar, kuponlar hamda xaridorlarning ijobiy sharhlariga ega bo'lgan platformalar an'anaviy savdo markazlariga nisbatan ko'proq xaridor jalb qiladi. Bu esa elektron tijorat platformalarining raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi.

Jahon tajribasi

Xitoy elektron tijorat sohasida jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, onlayn savdo hali chakana savdoning dominant turi emas va umumiy chakana savdoning atigi 23,1% ini tashkil etadi. Xitoydagi eng yirik e-commerce brendlaridan AliBaba, JD.com va Pinduoduo marketpleyslarini ajratish mumkin. Shuningdek, transchegaraviy xaridlar ham keng tarqalgan bo'lib, barcha onlayn xaridorlarning taxminan 42% i Yaponiya, AQSh va boshqa mamlakatlardan mahsulot buyurtma qiladi. Bu transchegaraviy savdo Xitoyning elektron tijorat bozorining 696 milliard AQSh dollari, ya'ni 58% ini tashkil etadi.

Xitoyda mobil qurilmalar orqali amalga oshiriladigan onlayn xaridlar ustunlik qiladi — umumiy savdodagi xaridlarning 4/3 qismi mobil platformalar orqali bajariladi va bu 873,3 milliard dollarni tashkil etadi. Mobil xaridlar yillik o'sishi 28,8% ga teng. Hozirgi kunda mamlakatda 852,2 million smartfon foydalanuvchisi mavjud, bu aholining 59,9% ini tashkil qiladi. 5G tarmog'ining kengayishi bilan smartfon foydalanuvchilari sonining yanada ko'payishi kutilmoqda. Mobil xaridlarning 67% i mobil ilovalar orqali amalga oshirilgan.

Xitoy aholisi **super ilovalar (Super-App)** orqali mahsulotlarni xarid qilishga tez moslashgan. Masalan, 980 million foydalanuvchiga ega **WeChat** ijtimoiy tarmog'i endi to'liq bozor — Marketpleys sifatida ishlamoqda.

Sun'iy intellekt (AI) asosidagi tizimlar xaridorlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish, chat-botlar orqali onlayn muloqot o'rnatish va yetkazib berish

jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Shuningdek, **TikTok, Instagram va Facebook** orqali mahsulot reklama qilish, mijozlar bilan bevosita muloqot va to'g'ridan-to'g'ri sotuvlarni amalga oshirish elektron tijoratning yangi bosqichi sifatida ajralib turadi.

AR (Augmented Reality) va VR (Virtual Reality) texnologiyalari xaridorlarga mahsulotni vizual sinab ko'rish imkonini berib, xarid qilishga bo'lgan ishonchni oshiradi. Bu texnologiyalar ayniqsa kiyim-kechak, mebel va kosmetika sohalarida keng qo'llanilmoqda.

Shuningdek, ekologik jihatdan barqaror mahsulotlar va yetkazib berish tizimlariga talab ortib bormoqda. Kompaniyalar "yashil" qadoqlash, karbon izini kamaytirish va ekologik mahsulotlar taklif qilish orqali mijozlar e'tiborini jalb qilmoqda.

O'zbekiston hukumati so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish va to'lov tizimlarini soddalashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonda onlayn xaridlar soni o'tgan yilga nisbatan 35% ga oshgan. Shu bilan birga, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning e-commerce platformalariga kirib borishi eksport salohiyatini yanada oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, so'nggi yillar davomida elektron tijoratga bo'lgan talab sezilarli darajada oshib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri — onlayn savdoning tezkorligi, mahsulot va xizmatlarning sifatli taqdim etilishi, narxlarning onlayn platformalarda ochiq va solishtirilishi mumkinligi, shuningdek, turli turdagi xaridorlar ehtiyojiga moslashtirilgan mahsulotlarning mavjudligidir.

Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda deyarli barcha xizmat ko'rsatish, chakana savdo va sanoat sohalarida onlayn platformalar shakllangan bo'lib, ularning turi va funksional imkoniyatlari doimiy ravishda kengayib bormoqda. Marketplace, sun'iy intellekt (AI) va boshqa zamonaviy texnologiyalardan foydalanish biznes jarayonlarini soddalashtiradi, xaridorlarga qulaylik yaratadi va mijozlarning ehtiyojlarini samarali qondirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 30.11.2023-yildagi PQ-381-sonli "Raqamli mahsulotlar (xizmatlar) iste'molchilari huquqlarini himoya qilish va raqamli texnologiyalar vositasida sodir etiladigan huquqbuzarliklarga qarshi kurashishni kuchaytirish choralari to'g'risida"gi qarori.
2. А.А.Марченков «Маркетплейсы как главный тренд электронной коммерции» // Научные стремления. Выпуск 26. Россия. 2021 с.65
3. Верегина А. В., Коваль Д. В. Приоритеты развития электронной коммерции в 2022 г. // Экономика. Налоги. Право. 2022. № 1. С. 94–104
4. В.И.Ахмедовning "Raqamlashtirish davrida elektron tijoratning rivojlanishi" "Raqamli Iqtisodiyot" Ilmiy-Elektron Jurnal 2023 №2 С 6-13
5. Islomov, M. Elektron tijorat asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti 2022 С 84-88